XALQ DEPUTATLARI G‘IJDUVON TUMANI KENGASHINING
QARORI

2021 - yil 30 - dekabr VI-53-25-2-34-K/21 G‘ijduvon tuman hokimligi

G‘ijduvon tumanining 2022-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, xalq deputatlari G‘ijduvon tumani Kengashi

QAROR QILDI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, G‘ijduvon tumani mahalliy byudjetining 2022-yil uchun daromadlari 138,0 mlrd. 184,6 mln. so‘m, xarajatlari 245 mlrd. 845 mln. so‘m prognoz qilinganligi hamda viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 116,0 mlrd. 300,4 mln. so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2022-yil uchun G‘ijduvon tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2023-2024-yillarga maqsadli mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2022-yil uchun tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2022-yil uchun tuman byudjetidan byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2022-yil uchun tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2022-yil uchun tuman mahalliy byudjetlarining daromadlari va

xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2022-yil uchun viloyat byudjetidan tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. 2022-yil uchun tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 2 mlrd. 378,1 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

9. 2022-yil uchun tuman byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. G‘ijduvon tumani bo‘yicha yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer soliqlarining 2022-yil uchun soliq stavkalari 8-ilovaga muvofiq belgilansin.

11. Xalq deputatlari G‘ijduvon tumani Kengashining 2021 yil 29-dekabrdagi “G‘ijduvon tumani bo‘yicha 2022 yil uchun jismonyi va yuridik shaxslarning er solig‘i stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-52-15-2-34-K/21-sonli qaroriga mazkur qarorning 8-ilovasiga muvofiq tegishli o‘zgartirishlar kiritilsin.

12. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022-yilda xalq deputatlari tuman Kengashini mahalliy byudjetni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun

to‘lovdan tashqari);

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i, alkogol va tamaki maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2021-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

b) viloyat byudjeti hamda tuman byudjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

13. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Tolibov), Moliya bo‘limi (G‘.Tilloyev), Davlat soliq inspeksiyasi (O.O‘roqov) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tuman byudjetini birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjet prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

14. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (O.O‘roqov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga

undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash

hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

15. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (O.O‘roqov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (J.Hotamov) 2022-yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

16. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (O.O‘roqov) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

17. Mahalla va oilani qo‘llab quvatlash bo‘limi (I.Kamolova), jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda

ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

18. Tuman byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga masul etib belgilansin;

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

19. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Tolibov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tegishli bo‘lim boshliqlari:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

20. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

21. Mazkur qaror “G‘ijduvon” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

22. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

23. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari G‘ijduvon tuman Kengashi raisi



Sh.Ashurov

Халқ депутатлари Ғиждувон туман Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-53-25-2-34-K/21-сон қарорига
1-илова

G‘ijduvon tumanining 2022-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoz ko‘rsatkichlari hamda 2023-2024 yilga mo‘ljallari

№	Ko‘rsatkichlar	2022-yil uchun prognoz	Mo‘ljal	
			2023-yil	2024-yil
1.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	116,8	112,0	116,0
2.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	105,0	105,3	105,9
3.	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	126,5	133,3	118,6

Халқ депутатлари Ғиждувон туман Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-53-25-2-34-K/21-сон қарорига
2-илова

G‘ijduvon tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2022-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

№	Daromad turi	G‘ijduvon tumani
	Jami daromadlar	**138 184 624**
I.	**Rag‘batlantiruvchi (Stimuliruyuщiye) daromad**	**13 659 200**
	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	68 296 000
	ajratma meyori	*20*
1.	mahalliy byudjetga	13 659 200
	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	18 415 000
	ajratma meyori	
2.	mahalliy byudjetga	0
II.	**Biriktirilgan daromadlar**	**74 726 000**
	Tuman va shaharlarga biriktirilgan	**36 761 000**
1	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 553 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (ITD)	4 288 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	13 969 000
4	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda	2 494 000
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	10 047 000
6	Ijara to‘lovlari	410 000
	Viloyat va tuman (shahar)lar byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadigan daromadlar	**37 965 000**
1	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq (AZS)	19 900 000
	ajratma meyori	

	mahalliy byudjetga	0
2	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 173 000
	ajratma meyori	
	mahalliy byudjetga	0
3	Yuridik shaxslar yer solig‘i	10 229 165
	ajratma meyori	
	mahalliy byudjetga	0
4	Aylanmadan olinadigan soliq	21 168 000
	ajratma meyori	*100*
	mahalliy byudjetga	21 168 000
5	Yig‘imlar	16 797 000
	ajratma meyori	*100*
	mahalliy byudjetga	16 797 000
III.	**Taqsimlanuvchi daromadlar (formula bo‘yicha)**	**49 799 424**
	Aholi soni (ming kishi)	*308,8*
15.	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	18 846 478
16.	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	10 736 074
17	Tamaki mahsuloti uchun aksiz solig‘i	20 216 872
	JAMI XARAJATLAR	**254 485 058**
	TRANSFYeRTLAR	**116 300 434**

Халқ депутатлари Ғиждувон туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-53-25-2-34-K/21-сон қарорига
3-илова

2022-yil uchun G‘ijduvon tumani byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
	XARAJATLAR-JAMI	**254 485 058**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga xarajatlar - JAMI**	**199 391 044**
	shu jumladan:	
1.1	Maorif	34 945 819
	- maktabgacha ta’lim	20 651 891
	- umumiy ta’lim	14 293 928
1.2	Sog‘liqni saqlash	103 264 956
1.3	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	5 716 218
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1 717 944
	- sport	3 998 274
1.4	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	55 316 137
1.5	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	147 914
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**22 135 143**
	shu jumladan:	
2.1	Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari	624 882
2.2	Obodonlashtirish	15 913 741
2.3	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	1 405 512
2.4	Veterinariya qo‘mitasi	1 976 141
2.5	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	2 214 867
3.	**Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar**	**-**
4.	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**11 647 024**
	shu jumladan:	
4.1	Davlat boshqaruv idoralari	11 647 024
5.	**Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqaruv organlarini saqlash**	**7 040 736**
6.	**Zahira jamg'armasi**	**2 378 118**
7.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**11 892 993**
8.	**Boshqa xarajatlar**	**-**
	Jami daromadlar	**138 184 624**
	Transfert	**116 300 434**

Халқ депутатлари Ғиждувон туман Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-53-25-2-34-K/21-сон қарорига
4-илова

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy byudjetiga 2022 yildagi ajratmalari me’yorlari

foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i*	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslar yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i
6		0	100	20	100	0	0	100	0	100

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Yer qa’ridan foydalangan-lik uchun soliq (noruda materiallari)	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat boji	Jarimalar	Yig‘imlar	Davlat unitar korxonalarining sof foydasidan ajratma**	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	Xususiylash-tirish	Boshqalar***
6		100	100	0	0	100	0	100	0	0

Izoh: Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha 3111104, 3111106, 3111300, 3111600, 3111800 daromad kodlariga tushadigan mablag‘lar to‘liq tuman mahalliy byudjetiga yo‘naltiriladi.*

*** Davlat unitar korxonalarining sof foydasidan davlat byudjetiga ajratmalar bo‘yicha 3412110, 3412112 daromad kodlariga tushadigan mablag‘lar to‘liq viloyat byudjeti daromadlariga yo‘naltiriladi.*

**** Hukumat qarorlari bilan belgilangan normativlarga asosan taqsimlanadi.*

Халқ депутатлари Ғиждувон туман Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-53-25-2-34-K/21-сон қарорига
5-илова

Tuman mahalliy byudjetining 2022-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Byudjetlar nomi	Daromad *	Xarajat
G‘ijduvon tumani	138 184 624,0	254 485 058,0

** mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar bo‘yicha o‘tkazib beriladigan daromadlar bilan birgalikda.*

Халқ депутатлари Ғиждувон туман Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-53-25-2-34-K/21-сон қарорига
6-илова

Tuman mahalliy byudjetining 2022-yilgi yuqori byudjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Tuman nomi	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**
G‘ijduvon tumani	116 300 434,0

Халқ депутатлари Ғиждувон туман Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-53-25-2-34-K/21-сон қарорига
7-илова

Tuman mahalliy byudjetida 2022-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	**Hudud nomi**	**Miqdor**
1	G‘ijduvon tumani	2 035 000,0

Халқ депутатлари Ғиждувон туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-53-25-2-34-K/21-сон қарорига
8-илова

G‘ijduvon tumani bo‘yicha yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer soliqlarining 2022 yil uchun soliq stavkalari

ming so‘mda

Hudud kodi	Tuman (shaxar)lardagi MFY nomi	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslarga yer solig‘i stavkasi		Jismoniy shaxslar uchun er solig‘i stavkasi	
		Koeffitsiyent miqdori (0,7 dan 3 gacha)	Soliq summasi (1 gektar uchun, so‘mda)	Koeffitsiyent miqdori (0,7 dan 3 gacha)	Soliq summasi (1 kv.m uchun, so‘mda)
1	Biyosin MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
2	G‘ovshun MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
3	Mazragan MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
4	Maxallamirzayon MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
5	O‘zanon MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
6	Xaticha MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
7	Bobur MFY	1,03	30 108 614	1,06	278
8	Guliston MFY	1,03	30 108 614	1,06	278
9	Dilkusho MFY	1,03	30 108 614	1,06	278
10	Qo‘rg‘on MFY	1,03	30 108 614	1,06	278
11	Chorsu MFY	1,03	30 108 614	1,06	278
12	Buktoroy MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
13	Vazirshox MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
14	Taxtaxon MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
15	Ko‘kcha MFY	0,83	24 199 446	0,85	223
16	Qorabog‘ MFY	0,83	24 199 446	0,85	223
17	Qo‘riq MFY	0,83	24 199 446	0,85	223
18	Olmazor MFY	0,83	24 199 446	0,85	223
19	Xalqobod MFY	0,83	24 199 446	0,85	223
20	Ayritom MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
21	Paxtaobod MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
22	Amirobod MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
23	Toshloq MFY	0,83	24 199 446	0,85	223
24	A.Qaxxor MFY	1,03	30 108 614	1,06	278
25	Gulistonobod MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
26	Nodirabegim MFY	1,03	30 108 614	1,06	278
27	F.Yunusov MFY	1,03	30 108 614	1,06	278
28	Xavzak MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
29	Baqqollar MFY	0,96	28 138 891	0,99	259

30	Baraka MFY	0,83	24 199 446	0,85	223
31	Beshtuvo MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
32	Gishti MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
33	Oqrabot MFY	0,83	24 199 446	0,85	223
34	Rostgo‘y MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
35	Ulfatbibi MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
36	Dodarak MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
37	Karna MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
38	Qumoq MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
39	Pozagari MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
40	Sardor MFY	1,03	30 108 614	1,06	278
41	Sharq MFY	1,03	30 108 614	1,06	278
42	A.G‘ijduvoniy MFY	1,03	30 108 614	1,06	278
43	Dergezon MFY	1,03	30 108 614	1,06	278
44	Pamo‘za MFY	1,03	30 108 614	1,06	278
45	Bo‘lakiyon MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
46	Zarangari MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
47	Maxalla MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
48	Mustaqillik MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
49	Kalon MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
50	Sarvari MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
51	Tovariyon MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
52	F.Xo‘jayev MFY	1,03	30 108 614	1,06	278
53	Ko‘shk MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
54	Obod MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
55	Sarmijon MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
56	Chag‘dari MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
57	Armechan MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
58	Denov MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
59	Todon MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
60	Cho‘g‘alon MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
61	Zarafshon MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
62	Zargaron MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
63	Qassabon MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
64	Soxibiyon MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
65	Sho‘rcha MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
66	Yangiobod MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
67	Gajdumak MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
68	Jovgari MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
69	Ko‘lijabbor MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
70	Labiro‘t MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
71	Oqgul MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
72	Mirakon MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
73	Saidkent MFY	0,96	28 138 891	0,99	259
74	Soktari MFY	0,96	28 138 891	0,99	259

75	Tarxanon MFY	0,96	28 138 891	0,99	259